

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA SAMARALI YO‘NALTIRISH
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK, IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA

Ilmiy rahbari: I.Yo‘ldashev

PhD, dotsent. Farg‘ona davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti dekani

Po‘latova Shahnoza Ikromjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistratura bo‘limi jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlar nazariyasi
2-kurs 21.02 guruh magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola jismoniy tarbiya o‘qituvchilari umumta‘lim maktablarda o‘quvchilarini sport, chiniqish, jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarilishinagina emas, balki insoniy fazilatlar ya‘ni diqqat, e‘tiborlilik, intizom, iroda, maqsadga intilish, qiyinchiliklarni yengishga qat‘iyatlilik va boshqalarni tarbiyalashni talab qilinishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sport, bilim, malaka, ko‘nikma, jismoniy tarbiya, pedagogika, psixologiya, insoniy fazilatlar, qobiliyat, mutaxassis.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kundanoq barcha sohalarda yetuk va malakali kadrlarni tayyorlash, ularni ishlab chiqarish, fan, ta‘lim va turli sohalarga yo‘naltirish davlatimizning asosiy maqsadlaridan biri etib belgilandi. Ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy e‘tibor yosh avlodni barkamol, ma‘naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilganligi sohaning qanchalik muhim ekanligini yana bir karra ko‘rsatib berdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan taklif etilgan va Respublikamizda izchil amalga oshirib borilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bugungi kunda jahon miqyosida keng e‘tirof etilmoqda va o‘zining natijalarini bermoqda. Biroq, qayd etilgan yutuqlar bilan birga, kasbiy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish uchun to‘laqonli xizmat qilmayotgan sohalar ham mavjud. Jumladan, o‘quvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini dars jarayonida shakllantirishga bir qadar e‘tibor qaratilayotgan bir davrda, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishda tizimlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik yetarlicha o‘z aksini topmay kelmoqda.

Mazkur muammo uzoq yillar davomida pedagog olimlar tomonidan Respublikamiz va xorijda keng tadqiq etilgan. Jumladan, A.Bespalov, S.Vulfson, E.Klimov, N.Kuzmina, YU.Tyushev, I.SHarshov, YU.Vasilev, A.Dikunov, V.Kabachkov, S.Solodkov, L.Lubisheva, S.Boltaboev, O‘.Tolipov, K.Davletov, R.Jo‘raev, SH.SHaripov, H.Rashidov, SH.Ergashev, P.Xolmatov, YA.Haydarov, R.Asamova, R.G‘oziev, D.Arziqulov, T.Usmonxo‘jaev, R.Salamov, SH.Xonkeldiev, A.Abdullaev, R.Qudratov, R.Rasulov, M.Yunusova va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida kasbga yo‘naltirish, o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, kasbga yo‘naltirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy muammolari, darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil qilish va boshqarish, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalarini yoritganlar. Shuningdek,



bu sohadagi mavjud masalalarni hal qilish, maktab o'quvchilarining kasbga yo'naltirish jarayonida kasblar bo'yicha ularda ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish yo'llarini yoritib bergan. K.Davlatov va V.A.Chichkovlarning o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash nomli metodik qo'llanmasida to'garak mashg'uloti, sayohat, uchrashuv, kasbga yo'naltiruvchi kechalar kabilarni uyushtirish va o'tkazish yo'llarini yoritganlar.

P.Xolmatov esa o'zining ilmiy izlanishlarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashda darsdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati kattaligi haqida fikr yuritib, darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasini tavsiya etgan. Olim ilmiy izlanishda, asosan, ekskursiya, to'garak mashg'ulotlari hamda kasb kechalarining ahamiyatiga o'z e'tiborini qaratgan.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda qo'yilgan talablar yosh avlodni kasbga yo'naltirishning ilmiy va amaliy muammolari yechimini topishga qaratilgan tadqiqotlar faollashuviga sabab bo'ldi. Bu boradagi tadqiqotlarda yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlashning amaliy yechimini topishga qaratilgan quyidagi asosiy yo'nalishlarini qayd etish mumkin:

- o'quvchilarni mavjud kasblar bo'yicha tushuncha olishiga yordam beruvchi hamda o'z individual imkoniyatlarini haqqoniy baholay olish ko'nikmalari zarur darajasini ta'minlovchi kasbiy axborotlar tizimini yaratish;

o'quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam berish maqsadida shaxsni o'rganishning tashxis metodlarini ishlab chiqish;

- yoshlarga kasbiy maslahatlar berishning nazariy va metodik asoslarini yaratish;

- kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatli mayllarini asoslash;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning vosita va yo'llarini aniqlash;

- bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb tanlashga erkin yo'naltirishning mazmuni, shakl va metodlarini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tadbiiq etish sharoitida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

- alohida olingan hududiy markazlarda yoshlarni kasb tanlashga yo'llash ishini boshqarish xususiyatlarini belgilab berish talab etiladi.

Biroq, bizgacha mavjud bo'lgan tadqiqotlarda muayyan natijalar olingan bo'lsada, bugungi kunda kasb-hunar tanlashga yo'llash ishlarining asosiy maqsadi- har bir o'quvchining kasb tanlashda shaxsiy sifatleri, qiziqish, qobiliyat, moyilliklarini uyg'unlashtirish va jamiyat talablariga hamda kasb talablariga mos keluvchi sohani ongli ravishda tanlash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi hal etilmagan. Mazkur muammoni quyida yanada kengroq ko'rishimiz mumkin:

- 1) kasb tanlayotgan o'quvchilarga individual hamda tabaqalashtirilgan yondoshuv joriy etilmayapti;

- 2) ko'p hollarda olib borilayotgan tadqiqotlarda asosan so'zlashuv metodidan foydalanib ish olib borilmoqda;



3) o'quvchilarni qiziqtirgan yoki tanlagan kasbining xususiyatlari bilan bevosita tanishishi uchun keng imkoniyat yaratilmayapti.

4) umumta'lim maktablarda o'quvchilarni ma'lum bir kasbga yo'naltirishda ma'naviy-ma'rifiy hamda sport tadbirlaridan foydalanib soha vakillarini jalb qilish, o'quvchilarni qiziqtirish kabi ishlar tizimli yo'lga qo'yilmagan.

Bir qator olimlarning tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini o'tish vaqtida amaliy harakatlarni bajarish mobaynida o'quvchilarning amaliy topshiriqlarni bajarishlari natijasida qaysi kasblarga nisbatan qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklari borligini aniqlasa bo'lar ekan. O'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'llash ishlarini uyushtirishda sinf rahbari, maktab psixologi, o'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis (o'qituvchi) hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Albatta, u o'z faoliyatini dastlab Davlat ta'lim standartlari (DTS) asosida olib borishi talab etiladi. Ushbu hujjatlarda maktabdagi jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari izchil ta'riflanib, jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, o'quvchilarni jismoniy sifatlarini yanada rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi bo'yicha tushunchalar berish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish jarayonida ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish va rivojlantirish ongli tarzda kasb tanlash hamda boshlang'ich tushunchalar olishga undashdan iboratligi ta'kidlangan.

Yevropa mamalakatlarida kasbiy tegishlilik ikki tushuncha yordamida ochib beriladi: occupation (mashg'ulot, yoki kasb) va profession-ishni tashkil qilish shakli, mehnat yo'nalishi turi. Shunday qilib, kasbning ta'riflariga asoslanib kasblarning tasniflash modellari tuziladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kasblar tasniflagichi aniq yillar mobaynida talab va taklifdan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va shu tasniflagichga asosan ta'lim muassasalari o'quvchilarni qabul qiladilar. Sohaga tegishli bo'lgan olimlarning olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qaralganda kasbiy o'z-o'zini belgilash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning 4 ta guruhi farqlanadi.¹

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy omillar. O'z rivojlanishining turli bosqichlarida hayotga kirib kelayotgan jamiyat yoshlariga o'z kuchini sarf etish uchun turli sohalarni taklif etadi. Bu birinchi galda, kasblar sektori, ularning o'zgarishi va rivojlanishi istiqbollari, jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga ehtiyojiga taalluqli.

Ikkinchi guruhga ijtimoiy-psixologik omillarni kiritish mumkin. Bu eng avvalo, insonning maktab ta'limigacha va undan so'ng o'sadigan va tarbiyalanadigan ijtimoiy muhitdan iboratdir.

Uchinchi guruhni asl psixologik omillar tashkil etadi. Bu shaxsiy qiziqishlar va moyilliklar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi, xotira, diqqat, motorika va shu kabi xususiyatlar hisoblanadi.

¹ Ш.Неъматов, Ў.Тоҳиров, Г.Ядгарова, Н.Ташбаев. Ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш орқали умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълими узвийлигини таъминлашнинг назарий методологик асослари. Тошкент, Қори Ниёзий нашриёти, 2015 й.



To‘rtinchi guruh ham o‘quvchining individual-psixofiziologik xususiyatlaridan iborat. Ular psixik jarayonlar kechishining dinamik tavsiflarini belgilaydi va faoliyatning ma‘lum ko‘rinishlarini bajarishga ko‘ra moslashuvchi yoki uni qiyinlashtiruvchi turli temperamentlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga samarali yo‘naltirish jarayoniga ta‘sir etuvchi psixologik omillar G.T.Yadgarova, Y.M.Asadov, A.Zakirovlarning ilmiy ishlarida aks etgan. H.F.Rashidov va U.B.Turdubekovning ishlarida kasbga yo‘naltirishning samarali tizimini yaratishda bir qator iqtisodiy jarayonlarni ham tadqiq etish lozimligi ta‘kidlab o‘tilgan.² Chunki kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash ma‘lum ma‘noda iqtisodiyotga aloqador bo‘lgan jarayondir. Aniqrog‘i, kasbga yo‘naltirish tizimi faoliyatining yakuniy natijasida ma‘lum bir kasb tanlanadi va bu tanlangan kasbning ro‘yobga chiqishi iqtisodiy jarayon bilan bevosita aloqadordir.

T.K.Kovalenok, K.Davlatov, O.Qo‘ysinov va boshqalarning ishlari umumiy o‘rta ta‘lim fanlarini o‘qitishda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib borishning metodik asoslariga bag‘ishlangan.³ Bunda kasb-hunarga yo‘naltirishning diagnostik va tarbiyaviy konsepsiyalari keng tarqalganligi e‘tirof etilgan. Birinchi konsepsiya bo‘yicha kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi qobiliyatlar va boshqa psixologik xususiyatlarni aniqlashdan iborat bo‘lib, bu xususiyatlarning rivojlanish darajasi kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta‘minlab beradi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunar tanlashga yo‘naltirishning samaradorligini oshirish masalalari P.T.Magzumov, M.I.Vorobev, E.T.Choriev, V.P.Bondarev, N.T.Voronin, N.N.Zaxarov, S.S.Grishpun, E.A.Klimov, V.N.Koshelev, A.D.Sazonov, V.F.Saxarov, A.P.Seytshev, G.A.Umanov hamda S.N.Chistyakovalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida ijtimoiy foydali mehnat va kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish ishlarining o‘zaro uzviyligi masalalari P.R.Atutov, A.I.Vorobev, R.H.Jo‘raev, P.T.Magzumov, U.Nishonaliev, I.T.Choriev, O‘.Q.Tolipov, SH.S.SHaripov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Ta‘limning globallashuvi sharoitida o‘quv va tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muayyan tajribalar to‘plangan va bir qator izlanishlar, ishlar olib borilgan. P.Bespalko, N.F.Talizina, M.T.Gromova, T.S.Nazarova, N.Saidahmedov, M.Ochilov, J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov, S.G‘ulomovlarning ishlari shular jumlasidandir. Muammoga doir manbalarning tahlili umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda kasbiy tafakkurni shakllantirish borasida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning quyidagi muammolari mavjud ekanligini ko‘rsatdi:

² Ядгарова Г.Т. Ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш жараёнига таъсир этувчи омиллар. – Т.: Мактаб ва ҳаёт, 2006.

³ Шарипов Ш., К.Давлатов, Г.Насриддинова. Касб танлашга йўллашнинг илмий-педагогик асослари. Ўқув қўлланма. –Т.: ОЎМТВ, 2008.



- Respublikamizda bozor munosabatlari qaror topayotgan hamda ishlab chiqarish infratuzilmasida muhim o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi sharoitda ijtimoiy ehtiyoj va talablarga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish hamda ularda kasbiy tafakkurni shakllantirish borasida tashkiliy-pedagogik faoliyatning muvofiqlashtirilmaganligi;

- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirish bo'yicha o'qituvchilar faoliyatini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqilmaganligi;

- o'quvchilarda kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonlariga tizimli yondoshuv va milliy hududiy yondoshuvlarning tadbiiq etilmaganligi;

- oila, mahalla, uzluksiz ta'lim tizimi, keng jamoatchilik, tashxis markazlari, mutasaddi tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalari, Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati bo'limlari, o'quv va biznes markazlari o'rtasidagi o'quvchilarni kasb-hunarga yunaltirish yo'lida o'zaro hamkorlik faoliyatining keng ko'lamda o'rganilmaganligi;

- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining Davlat ta'lim standartida to'xtalib o'tilgan kasb-hunarlar to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasliklari sababli o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha to'laqonli faoliyat ko'rsata olmasliklari;

- o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ularning individual imkoniyatlari, qiziqishlari hamda ehtiyojlarining yetarli darajada inobatga olinmayotganligi.

O'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'naltirish sohasida nashr qilingan adabiyotlar, ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan olimlar R.Jo'rayev, H.Rashidov, V.Soy, Y.Asadov va boshqalarning ishlarini tahlil qilish natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini samarali kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratligi ma'lum bo'ldi.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga butun maktab davri davomida kasbiy axborotlar va kasbiy ma'lumotlarni berib borish. Bunda o'quvchining yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mavjud kasblar va bandlik sohalaridagi mehnat faoliyati sohalarini tushuntirish, kasblar va ularning qo'llanilishi, har bir kasbning faoliyat davomida qo'llanilishining ahamiyati xaqida axborotlar berish.

2. O'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab psixologik-pedagogik tashxis qilish yordamida ularning qobiliyatlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini o'rganish.

3. Pedagogik-psixologik tashxis natijalarini tahlil qilish asosida o'quvchilarga zarur maslahatlar berish, ularning psixologik muammolarini korreksiya qilish va natijada ularning imkoniyatlari va moyilliklari doirasida to'g'ri kasb tanlashlariga erishish kabilar.

Yuqorida keltirilgan bosqichlardagi ishlarning asosiysi pedagogik-psixologik tashxis tizimiga tegishlidir. Turli pedagogik-psixologik metodikalarni qo'llash yordamida tashxis qilish mobaynida har bir o'quvchining o'ziga xos tug'ma xususiyatlari, psixofiziologik qobiliyatlari, layoqatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari aniqlanadi. Psixologik-pedagogik tashxis doimiy ravishda bosqichma-bosqich olib boriladi va uning natijalari o'quvchining har bir yosh davriga mos ravishda tahlil qilinadi.



O'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'naltirishda pedagogik-psixologik tashxislash ishlarini amalga oshirish bosqichlari o'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'naltirishda pedagogik-psixologik tashxislash ishlari birinchi navbatda, maktab psixologlari tomonidan olib boriladi va bunda asosiy prinsiplar sifatida quyidagilarni etiborga olish talab etiladi:

- Tashxislash ishlarida ilmiy asoslangan, tajriba-sinovdan o'tkazilgan metodikalarni qo'llash;

- Tashxislash davrida shaxsning xususiyatlarini etiborga olish va unga psixologik ziyon etkazmaslik choralarini ko'rish;

- Tashxislash natijalarining sir tutilishini ta'minlash va h.k. Kasbga yo'naltirish deganda shaxs kasb tanlashda uning qiziqishlari, ayni paytda jamiyatda shu kasbga bo'lgan ehtiyoj va shu bilan birga shaxsda shu ehtiyojlarga asoslangan holda imkoniyatlari darajasini hisobga olib unga kasbiy maslahat, kasbiy adaptatsiya va psixologik metodikalarni taqdim etish asosida uni u yoki bu kasbga yo'naltirish va yordam ko'rsatish tushuniladi.

Kasbga yo'naltirishning turli nazariy izohlari orasida hozirgi vaqtda ikkita eng muhim tushunchani ko'rsatish mumkin, ular:

- An'anaviy (diagnostik);

- Zamonaviy (rivojlantiruvchi).

An'anaviy (diagnostik) kasbga yo'naltirish nazariyasining asosiy vazifasi shaxsda kasbiy moyillikni undagi psixologik xususiyatlar va shaxsiy ehtiyojlarini solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda asosiy mas'uliyat kasbiy yordamchiga yuklanadi. U test o'tkazish yo'li bilan va ulardan olingan natija asosida shaxsni u yoki bu kasbga moyilligini aniqlaydi. Bunday holatda shaxs, ya'ni ta'lim oluvchi passiv rol o'ynaydi.

Zamonaviy (rivojlantiruvchi) kasbga yo'naltirish konsepsiyasi shaxsning o'z kelajagini aniqlashda faol ishtirokini nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor shaxsning turli xil sohalarni egallashi jarayonida undagi rivojlanishni aniqlashga qaratiladi. Kasbga yo'naltirish o'quv-tarbiyaviy ishlarining qismi sifatida ko'riladi. Kasb tanlashga tayyorgarlik esa shaxsga jamiyat tomonidan ta'sir etuvchi bir tarbiyaviy tizim asosida ko'riladi.

Kasbga yo'naltirish tizimi tushunchasini ko'rib chiqish maqsadida ma'lum tushunchalarga aniqlik kiritishimiz lozim. Birinchi navbatda kasb tushunchasini ko'rib chiqamiz. Ushbu atamani aniqlashda E.A.Klimov to'rt yondoshuvdan foydalangan. Ular quyidagilar:

1) Inson o'z mehnat funksiyalarini bajaradigan muhit;

2) Aniq bir sohada ish olib boradigan insonlar hamjamiyati;

3) Tayyorgarlik, ya'ni barcha bilim, ko'nikma va malakalari yordamida shaxsning aniq bir mehnat funksiyalarini bajara olishi;

4) O'z kasbining mutaxassisi, professional, ya'ni vaqt bo'yicha taqsimlangan mehnat funksiyalarini bajarish jarayoni kabilar.



Yoshlarni kasbga yo'naltirish jarayonida turli xil metodlardan foydalanilishi mumkin, ular:

- axborotli – dasturlar, bukletlar, reklama, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot va h.k.;
- turli xil tashkilot va muassasalarga ekskursiyalar uyushtirish – bevosita u yerga borib, ularda ish jarayoni, tartibi va ish yuritiladigan soha bilan tanishish;
- kasbga oid filmlar, multimedialar va videoroliklar ko'rsatish;
- dars jarayonida yoki ma'lum bir ajratilgan to'garaklar, mashg'ulotlar davomida o'quvchi-yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish maqsadida ularga shu mavzuga oid filmlar, multimedialar va videoroliklar qo'yib berish;
- mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil qilish, kasbga yo'naltirish va u bilan bevosita ish yuritadigan mutaxassislar, korxonalar va tashkilotlarning vakillari bilan uchrashuvlar;
- kasbga yo'naltirish kursidan maxsus darslar o'tkazish, kasbga yo'naltiruvchi pedagog, konsultant va psixologlarni jalb qilgan holda yoshlarga kasbga oid ma'lumotlar taqdim etish, ularda shaxsiy qiziqishlarini savol-javob, test va boshqa turli yo'llar bilan aniqlab, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish.

XULOSA

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, kasbga yo'naltirishda foydalaniladigan metodlar yuqorida taqdim etilgan ro'yxatdan ko'p, lekin keltirilgan metodlar asosiy va bu yoshdagi o'quvchilarni kasb tanlashida oson bo'lgan yondoshuv sifatida ko'riladi. Kasbga yo'naltirish nazariyasidan kelib chiqadigan asosiy tamoyillar quyidagilardan tashkil topadi:

- Shaxsiy va ommaviy qiziqishlar orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish;
- Kasbning erkin tanlovi va yoshlarning egallamoqchi bo'lgan kasblariga nisbatan imkoniyat darajalari orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish;
- Pedagogik-psixologik tashxislash va kasbga yo'naltirish metodlari va usullari shakllarini ilmiy isbotlanishi;

- Barcha ma'lumot turlarini kasb va o'qish shakllarini tanlash, va ishga joylashuvga nisbatan erkinligini ta'minlash;

- Kasbga yo'naltirishning komplekslik xarakterga egaligi kabilar.

Psixologlar tomonidan shunday fikr yuritiladi ya'ni, birinchi navbatda, biror bir o'zi uchun muhim bo'lgan, shaxsiy tanloviga nisbatan bir qaror qabul qilishidan avval, o'ziga quloq solishi lozim.

Soha hamda mavzuni o'rganish davomida kasbga yo'naltirish tushunchasi shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Bunday o'zaro bog'liqlikning natijasi shaxsning kasbiy o'zini o'zi anglashida ko'rinishi ma'lum bo'ldi. Ushbu yondoshuvning o'ziga xosligi, u shaxsning kasbiy o'z o'zini anglashi uning o'ziga nisbatan kelajakdagi kasbiy faoliyatining sub'yekti sifatida shakllanishini o'rganadigan jarayon bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida u shaxsning kasbini o'zgartirishi, hayotga va boshqa kasbga moslashuviga tayyorlash jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kasbga yo'naltirish ishlarining eng samaradorli shakllari qo'llanilgan hollarda ham, barcha o'quvchi-yoshlar ongli ravishda kasb tanlashadi



deb bo'lmaydi, shuning uchun kasb tanlashga tayyorgarlik darajasini o'rgangan holda ma'lum bir guruhlarini imkon qadar ertaroq aniqlash lozim.

Qaror qabul qilish darajasi bo'yicha o'quvchi-yoshlarni guruhlariga bo'lish kasb tanlashda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash va baholashdan boshlanadi. Tushunchaga aniqlik kiritish uchun guruhlarning quyidagi taqsimotini ko'rishimiz mumkin:

Birinchi guruh – tanlab, tegishli qarorga kelgan o'quvchilar;

Ikkinchi guruh – u yoki bu kasbga qiziqish bildirib, tanlashga tayyor turgan o'quvchilar;

Uchinchi guruh – tanlashda faollik ko'rsatgan, ammo biror kasbga qiziqish bildirmagan o'quvchilar;

To'rtinchi guruh – kasb tanlashga motivatsiyasi bo'lmagan o'quvchilar.⁴

Yuqorida keltirilgan guruhli taqsimotga asoslanib, kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoniga yondoshuv sifatidagi ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida, o'quvchi-yoshlarni o'z-o'zini anglashi va qiziqishlarini aniqlash, tizimning rivojlanishi va kasbga yo'naltirish jarayonining samaradorligini oshirishning nazariy asosi sifatida, avvalam bor, o'quvchi-yoshlarda kasbiy faoliyat, unga bo'lgan motivatsiya, ya'ni qiziqishlarining shakllanishi uchun ularda shunga yetarli darajada psixologik, pedagogik tayyorgarlikni shakllantirish lozim.

ADABIYOTLAR:

1.Xankeldiev, Sh. X., & Xasanov, Sh. (2021). Osobennosti metodiki podgotovki yuno'x bokserov na pedsorevnovatelnom etape. In Nauka segodnya: problema' i puti resheniya(pp. 93-94).

2.Shoxjaxon, X. (2022, October). HAKATGA O'RGATISHNING USLUBIY TAMOIILLARI. In E Conference Zone (pp. 39-51).

3.Shoxjaxon, X. (2022, October). TALIM JARAYONIDA HAKATGA O'RGATISHNING METODLARI VA ETAPLARI. In E Conference Zone(pp. 19-31).

4.Xankeldiev, Sh. X., & Xasanov, Sh. (2021). Aktsentirovannaya fizicheskaya podgotovlennost yuno'x bokserov na nachalnom etape obucheniya. In NAUKA SEGODNYa: ISTORIYa I SOVREMENNOST(pp. 41-43).

5.Valievich, D. S., & Iqbolakhan, A. (2022, November). PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF IMPROVING PHYSICAL FITNESS OF GENERAL EDUCATION SCHOOL STUDENTS (IN THE EXAMPLE OF PRIMARY CLASSES). In E Conference Zone (pp. 1-13).

⁴ Ш.Неъматов, Ў.Тоҳиров, Г.Ядгарова, Н.Ташбаев. Ўқувчиларни касб-хунарга йўналтириш орқали умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълими узвийлигини таъминлашнинг назарий методологик асослари. Тошкент, Қори Ниёзий нашриёти, 2015 й.



6. Jalolov, S., & Abduraxmonov, S. (2022). Evaluation of the development of older school children on health tests. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 927-930. International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India <https://econferencezone.org> 23rd Nov. 2022 73 | Page

7. Jalolov, S., & Ilyasova, M. (2022). Resistant to the development of physical education in the lessons. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 870-874.

8. Haydaraliev, X., & Malikov, I. (2022, June). LOADING AND ITS NORM IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS. In *E Conference Zone* (pp. 60-63).

9. Haidaraliev, H., & Nizamova, S. (2022). AGE-RELATED FEATURES OF MOTOR QUALITIES IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(05), 94-100.

10. Xaydaraliev, X. X. (2022). TEXNOLOGIYA KOMPETENTNOSTNOGO PODXODA DLYA SOVERSHENSTVOVANIYA ANTIKORRUPTIONNOGO MO'SHLENIYA STUDENTOV. *World scientific research journal*, 2(2), 202-210.

